

“MUQADDAS ITTIFOQ”NING TUZILISHI MOHIYATI VA VAZIFALARI

Axmakov Sherzod Mamurjonovich
Samarqand shahar 75-maktab tarix fani o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Bugungi ziddiyatli davrda dunyodagi siyosiy jarayonlar taboro qarama-qarshi xarakterni namoyon qilmoqda. O‘tgan asrning 90-yillarda o‘ziga xos “Sovuq urush”ning yakuniga yetishi bilan dunyoda AQShning barcha sohalardagi ustunligi amalda tan olindi. Shu bilan birga rivojlangan G‘arbiy Yevropa va umuman G‘arb dunyosining umumiy maqsadlar yo‘lida birlashishi natijasida barcha sohalardagi ustunlik G‘arb dunyosiga ko‘chganek bo‘ldi. Ammo o‘tmishda bu ikki mintaqqa o‘rtasida o‘ziga xos kurash va ziddiyatlar juda ko‘p sohalarda yuz bergan. Butun G‘arbiy yarim sharning Yevropa davlatlariing mustamlakasi bo‘lganligini inobatga olsak, mavzuning alohida ahamiyat kasb etishi o‘z – o‘zidan tushunarli bo‘ladi. Yevropada “Muqadas ittifoq”ning tashkil etilishi va uning maqsadlari AQSH va Lotin Amerikasi uchun ham ahamiyatli edi.

Kalit so‘zlar: *Monro doktrinasi, Vena kongressi, davlatlararo munosabatlar, demokratik inqilob;*

Bir vaqtning o‘zida Yevropa va AQSH tarixining muhim davri sifatida ko‘rsatiladi. Sababi Monro doktrinasining qabul qilinishi AQShning keyingi salkam bir asrlik tashqi siyosiy maqsadlarini belgilab bergan bo‘lsa, Vena kongressi Yevropadagi kuchlar nisbatining o‘zgarishi, chegaralarning g‘oliblarning manfaati yo‘lida qayta belgilab olishini va shu bilan bir qatorda Muqaddas ittifoqning tashkil etilishi bilan Yevropada monarxiyaning legitimligini himoya qilinishi, inqiloblarning oldini olish kabi maqsadlar va kezi kelganda bahonalar bilan davlatlarning ichki ishlariga qo‘pol ravishda aralashish imkonini yuzaga kelgandi.

Turli mamlakatlarda ikki mintaqqa munosabatlari masalasida va ikki voqeanning asosiy mohiyati borasida turlicha qarashlar mavjud. Rossiyalik tarixchilar mazkur mavzu yuzasidan o‘zlarining qarashlarini va fikrlarini bildirib borishgan. Ulardan Jumladan, V. K. Nadlerning 1982-yilda nashr qilingan «Император Александр I и идея священного союза», xorijilik mualliflardan, fransuz tarixchisi A. Debidurning 1947-yilda nashr qilingan “Дипломатическая история Европы: от Венского до Берлинского конгресса” kitobining birinchi tomi, Amerikalik marksist tarixchi U.Z. Fosterning «Очерк политической истории Америки» (1995), A.I. Molokning 1949-

yilda nashr etilgan "Венский конгресс и Священный союз. Франция в период реставрации Бурбонов (1815-1830 гг.)", E.V. Tarle va A.V. Yefimovlarning 1940-yilda nashr qilingan "Европа в период 1794-1815 годов" va boshqa asarlarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin.

Vena kongressi natijasida Yevropadagi chegaralar masalasining hal etilishi, davlatlararo munosabatlarning tartibga solinishi bilan kongress ishtirokchilari endi kelgusida mintaqada tinchlik o'rnatishning o'ziga xos garovini yaratmoqchi bo'lishadi. Albatta Muqaddas ittifoqning tashkil etilishidan har bir qudratli mamlakatning o'z rejalari va maqsadlari bo'lgan. Bu kabi masalalar keyingi o'rinnardi imkon qadar to'liqroq yoritib beriladi.

Bunday ittifoqning tashabbuskori Aleksandr I. 1815-yil 14-sentabrda u Prussiya qiroli va Avstriya imperatoriga deklaratsiya yuborib, unda ularni mutlaq monarxiya hokimiyatini himoya qilishga, inqiloblar va xalq harakatlariga qarshi kurashishga chaqirdi. Rus imperatorining tashabbusini mammuniyat bilan qo'llab-quvvatlagan va "Muqaddas ittifoq" deb nomlangan barcha monarxlar uchun foydali bo'lgan shartnoma bir vaqtning o'zida shu davr uchun muhim ahamiyatga ega. Rasmiy ravishda uning tarkibiga Rossiya, Avstriya va Prussiya hukmdorlari kirgan bo'lib, ular birortasiga tahdid tug'ilganda "bir-birlariga imtiyozlar, qo'shimchalar va yordam berishga" va'da bergenlar. Aslida, Angliya ham Muqaddas ittifoq faoliyatida ishtirok etgan. Muqaddas ittifoqning yaratilishi uning a'zolari o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni to'liq bartaraf etmadi. Ular Yevropadagi siyosiy vaziyatning murakkablashishi bilan namoyon bo'ldi.

O'rnatilgan chegaralarni qo'llab-quvvatlash va demokratik inqilobga yo'l qo'ymaslik maqsadida 1815-yil 26 sentabrda Parijda Aleksandr I, Frans I va Fridrix-Vilgelm III o'rtaida "Muqaddas ittifoq"ni tuzish to'g'risida kelishuvga imzo chekildi¹.

Ittifoqning maqsadi shu ediki har qanday xavf tug'ilgan holda ittifoqchilar bir-birovlariga yordam berishlari kerak edi. Muqaddas ittifoqga boshqa davlatlar ham taklif etildi, faqatgina Angliya ittifoqga qo'shilmadi. Shunga qaramay Angliya Aleksandr I ga Ittifoq tamoyillarini qo'llab-quvvatlashini bildirdi.

Biroq Muqaddas ittifoqni tuzish to'g'risidagi kelishuv ham, uning ishtirokchilari o'rtasidagi chuqur qarama-qarshiliklar oldini ololmasdi.

Shunga qaramay Vena traktati, Parijda Muqaddas ittifoqni tuzish to'g'risidagi akt bir necha yillarga G'arbiy Yevropada metternixlikni va Rossiyada arakcheyevlikni chuqur reaksiyon tartiblarini mustahkamladi. Ayniqsa "Muqaddas ittifoq" davrida

¹ Надлер В. К. Император Александр I и идея Священного союза. М., 1982. с.89

Aleksandr I ning umumevropa ishlariga ta'siri kuchli edi va shuning uchun ham unga "Yevropa jandarmi" nomi berildi.

Bu nomga Aleksandr I va keyinchalik uning ukasi Nikolay I to'laqonli loyiq edilar. Albatta shuni aytib o'tish joizki, na Aleksandr I, na Nikolay I o'sha davrdagi Yevropa progressiv kuchlarining baxtiga qarshi, Yevropada yagona "jandarm" emas edilar. Ularning ikkalasini oldida Metternix ham harakat qilgan, Aleksandr bilan birga Fransiyada "Oq terror" odamlari, Neopolitan Burbonlari harakat qilishgan bo'lsa, Nikolay bilan birga Germaniyada, Italiyada, Ispaniyada katolik reaksiyasi harakat qildi. Ularning barchasini podshodan farqi shu ediki, ular podshodan kuchsiz edilar². Rossiyaning Muqaddas ittifoqdagi roli haqida gapirsak, Rossiya ittifoqda bosh rolni o'ynash bilan birga uning roli o'ziga hos harakterga ega bo'lgan. "Muqaddas ittifoq" akti G'arb va Sharq davlatlariga, Rossiyaga, yomon va ikkitomonlama ta'sir o'tkazdi. G'arbiy Yevropada Vena kongressidan keyin vujudga kelgan telba hukumat reaksiyasi Rossiya himoyasi ostida qoldi, biroq Rossiyaning ular bilan ishi yo'q edi.

Yuqoridagi voqealardan so'ng kongress Germaniya ishlarini tartibga solishga kirishdi. Germaniya masalasida kuchli bahslar bo'lmadi, Aleksandr, huddi Metternix singari Germaniyani tarqoqligini mustahkamlash kerak degan fikrni bildirdilar. Angliya ularning fikrini maqulladi, Prussiya esa ilojsiz edi, agar u kurashishni xohlasa ham hech narsaga erisha olmas edi. Vena kongressining barcha a'zolari Germaniya tarqoqligiga nisbatan qandaydir chora ko'rishni ham xohlamas edilar, shundan so'ng Germaniya aholisining barcha umidlari puchga chiqdi³.

Bu ittifoqning ishlarini amalga oshirish uchun "Germaniya seymi" tuzildi. Ittifoqga Avstriya, Prussiya va barcha boshqa german davlatlari (umumiyligi soni 38 ta) kiritildi. Metternixning rejasiga ko'ra ittifoq kelajakda Fransyaning Reyn tomonga qarab siljishiga to'siq bo'lishi kerak edi va shu bilan birga Germaniyada Avstriyaning rahbarlik rolini ta'minlashi kerak edi. Umuman Germaniya ittifoqini tuzilishiga baho berilsa, bu ittifoq Germaniya xalqini birlashtirish uchun emas, balki uni yanada tarqoqlik girdobiga tortishga mo'ljallangan edi⁴.

Vena kongressi Yevropada vaqtinchalik siyosiy muvozanatni o'rnatilishiga olib keldi xolos. Vena kongressi natijalari mustahkam emasligini kongress qatnashchilarining o'zлари ham yaxshi bilishardi, rasman Yevropada beshta "buyuk" davlat hisobga

² Троицкий Николай. Во главе Священного союза. Россия в XIX веке. М., 1997. с.81

³ Всеобщая история дипломатии. М., 2009. с.125

⁴ Литтлвуд Йен. История Франции от древнейших времен до наших дней. М., 2004 с.300

olingan bo'lsa, amalda esa xalqaro siyosatning yo'nalishini belgilash Rossiya, Avstriya va Angliyaning qo'lida edi⁵.

Qanchalik g'alati bo'lmasin lekin Muqaddas ittifoqga qarshi harakatlarni birinchi bo'lib uning tashkilotchisi amalga oshira boshlaydi. O'sha davrda podshoning shaxsiy siyosati kabinetlar kelishuviga katta zarar yetkazadi, shuningdek inqilobiy va konstitutsion g'oyalarni tarqalishiga sabab bo'ladi.

Undan tashqari, Asosiy aktdan Yevropa davlatlarining o'zaro munosabatlarini tartibga soladigan mahsus bandlarga ham ega edi. Masalan, chegaraviy va halqaro ahamiyatga ega bo'lgan Mozla, Maas, Reyn va SHelda kabi daryolarda kemalar qatnovini tartibga solish va boj yig'ishni tartibga soluvchi normalar; erkin kema qatnovini muvofiqlashtiruvchi tartiblar joriy etildi; Asosiy aktning ilovasida negrlar bilan savdo qilish taqiqlandi; barcha davlatlarda senzura kuchaytirilib, politsiya tartibi o'rnatildi. Vena kongressidan keyin "Halqaro munosabatlarning Vena tizimi" deb nomlangan tizim vujudga keldi.

Aynan Vena kongressida bugungi kungacha amalda bo'lgan diplomatik agentlarning uch sinfi o'rnatildi; diplomatlarni qabul qilishning yagona tartibi, konsullik tashkilotlarining to'rt turi belgilandi. Buyuk davlatlar (o'shanda birinchi navbatda Rossiya, Avstriya, Buyuk Britaniya), multikanal diplomatiya degan tushuncha to'liq shakllandi.

Muqaddas ittifoq tuzish borasida qaror qabul qilindi.

Muqaddas ittifoqni tashkilotchisi rus imperatori Aleksandr I edi, lekin Muqaddas ittifoq aktini tuzishda u hali ham liberalizmga homiylik qilish va Polsha podsholigiga konstitutsiyani in'om qilish mumkin deb bilardi. Unda ittifoq tuzish fikri bir tomonidan Yevropada bu kabi ittifoqni tuzish orqali o'zini tinchlikparvar qilib ko'rsatish g'oyasidan kelib chiqqan bo'lsa, boshqa tomonidan undagi mistik kayfiyat bunga sababchi edi. Uning mistik kayfiyatga berilganligini ittifoqchilik shartnomasini matnidan ham ko'rish mumkin.

Xujjatda shunday deyiladi: «Illohiy va ajralmaydigan uch monarx nomi bilan. Avstriya imperatori, Prussiya qiroli va Rossiya imperatori xazratlari Yevropada oxirgi uch yilda sodir bo'lgan voqealardan hulosa chiqarib, barcha davlatlar va hukmdorlar uchun yagona, Xudoga ishongan holda davlatlar va ularning hukmdorlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda quyidagilarni belgilaydi.⁶

⁵ Надлер В. К. Император Александр I и идея Священного союза. М., 1982. с.122

⁶ Литтлвуд Йен. История Франции от древнейших времен до наших дней. М., 2004 с.348

1. Muqaddas yozuvlarga asoslanib uchala kelishayotgan monarxlar o‘zaro og‘a-ini rishtalari bilan bog‘lanib, har qanday holatda bir-biriga yordam berishi va mustahkamlanishni o‘ziga sharaf deb biladi; o‘z aholisi va qo‘siniiga nisbatan ham huddi shunday boshqaruvni joriy etadi.

2. Yuqorida tilga olingan hukmdorlar bir-biriga yagona xristian xalqi sifatida yaxshi munosabatda bo‘lishi, uch ittifoqchi davlat ya’ni Avstriya, Prussiya va Rossiya yagona xristian xalqining uch oilasi sifatida boshqaruvni olib boradi.

3. Bu muqaddas aktni tantanali ravishda qabul qilish istagida bo‘lgan barcha davlatlar Muqaddas ittifoqni insoniyat taqdiri uchun sevgi bilan qabul qilsin⁷.

1815-yil 14 (26) sentabrda uch monarx: imperator Frans I Avstriyskiy, qirol Fridrix Vilgelm I Prusskiy va imperator Aleksandr I tomonidan imzolangan bu shartnoma dastlabki ikki hukmdor uchun xech narsani anglatmasdi.

Muqaddas ittifoq g‘oyasiga dastlab shubha bilan qaragan Metternixning so‘zlariga ko‘ra bu “bema’nilik” qolgan ikki davlat rahbari ko‘z oldida oddiy tarbiyaviy manifestatsiya bo‘lib xech qanday ahamiyatga ega bo‘lmagan.

Aynan Metternixning estaliklarida “Muqaddas ittifoq xalqlarning huquqlarini cheklash va absolyutizmga qandaydir bir yordam ko‘rsatish uchun yaratilmagan edi. Bu Ittifoq imperator Aleksandrning xayoliy harakatlari bo‘lib, siyosatga xristianlik qoidalari bilan yondashishdan iborat edi. Muqaddas ittifoq borasidagi g‘oya liberal, diniy va siyosiy fikrlarning qorishmasidan shakllangan”.

Biroq Metternix o‘z fikrini o‘zgartirib Muqaddas ittifoqdan o‘z maqsadiga erishish uchun mahorat bilan foydalandi. Bu kabi shartnoma zarur yoki zarur emasligi borasidagi masala esa boshqa savol edi. Agar imperator Aleksandr bu hujjatda aks etgan ruhiyat bilan ittifoqni boshqorganida nafaqat Yevropa, balkim butun dunyo unga tashakkur izhor etardi. Ehtimol, imperator Aleksandr shu orqali o‘z shon-shavkatini mustahkamlab olishni niyat qilgan bo‘lsa, u holda kelajak uning bu qarorini munosib baholaydi.

Muqaddas ittifoq liberal harakatlarga qarshilik ko‘rsatadigan asosiy umumevropa tashkiloti edi. Uning amaliy ahamiyati turli milliy va inqilobiy harakatlarni bostirish maqsadida boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashish borasida aniq mexanizmlar ishlab chiqilgan bir qancha kongresslar (Aaxen, Troppau, Laybax va Verona)da o‘z aksini topdi⁸.

⁷ Литтлвуд Йен. История Франции от древнейших времен до наших дней. М., 2004 с.349

⁸ Литтлвуд Йен. История Франции от древнейших времен до наших дней. М., 2004 с.377

Dunyoda konservativ asos yordamida amalga oshirilgan Napoleondan keyingi tartiblar, mustahkam bo‘lib chiqmadi. Qayta tiklangan bir qator feodal-aristokrat tuzumlar tez orada yemirila boshladi. Muqaddas ittifoq faqatgina dastlabki 8-10 yilda faol edi holos, keyin esa bu ittifoq deyarli parchalanib ketdi. Shunga qaramay Vena kongressi va Muqaddas ittifoq bir necha yilga bo‘lsa ham tinimsiz va dahshatlil urushlardan charchagan Yevropada umumiylar tinchlik o‘rnatdi.

Muqaddas ittifoqning so‘nggi Veronadagi kongressida (1822-yilning 20 oktabridan 14 dekabrgacha), faqatgina greklar qo‘zg‘aloni masalasida fikrlar bir yoqadan chiqdi. Bu masala kongress ishtirokchilarining barchasi tomonidan muhokama qilindi. Boshqa masalalar yuzasidan chuqur tortishuvlar boshlandi. Yirik davlatlar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar, ayniqsa tashqi siyosatini burjuaziya belgilab beruvchi, kapitalistik rivojlangan Angliya va sanoat sohasida kamroq rivojlangan yarim feodal davlatlar Muqaddas ittifoq asosini yemira boshladilar⁹.

Vena kongressi buyuk davlatlarning xalqaro konferensiyalarini muntazam chaqirish uchun namuna bo‘ldi, bu konferensiyalarda buyuk davlatlarga xalqaro muammolarni muhokama qilish va ularni hal qilish yo‘llarini topish imkoniyati berildi. Ittifoq mavjudligining dastlabki yillarida asosan Yevropa muammolari muhokama qilingan; keyingi yillarda vakolatlar aniq xalqaro muammolarni hal qilish uchun ham berilgan va har bir ishtirokchi davlat o‘z vakillarini chaqirdi.¹⁰

Shu bilan birga vakolatli shaxslar kongress qarorlarini ham ko‘rib chiqdilar. Shunday qilib, Vena Kongressining hududiy reglamenti oxir-oqibat Italiya va Germaniyaga tegishli qismini bekor qilindi, ammo ularning bekor qilinishi buyuk davlatlarning ochiq yoki so‘zsiz roziligi bilan tasdiqlandi.¹¹

Asosiy natija shundaki, Vena kongressi Yevropada to‘rtta "buyuk davlat" (Rossiya, Angliya, Avstriya, Prussiya) hukmronligiga asoslangan yangi xalqaro munosabatlar tizimini yaratdi, unga 1818 yilda Fransiya qo‘sildi. Vena kongressidan keyin birinchi marta bu tizimda hal qiluvchi rolni Napoleon urushlaridan keyin xalqaro maydonda o‘sha vaqtida harbiy jihatdan tengi bo‘lmagan Rossiya o‘ynadi. Angliya va Avstriya ham Yevropa siyosatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Prussiya endigina mustahkamlana boshladi va Fransiya tinchlik shartnomasi shartlariga ko‘ra sezilarli darajada zaiflashdi. Aslida bu boshqa buyuk davlatlarning Fransianing ichki ishlariga

⁹ Всеобщая история дипломатии. М., 2009. с.120

¹⁰ Дебидур А. Дипломатическая история Европы от Венского до Берлинского конгресса (1814 – 1878). М.: 1947. С. 99.

¹¹ Дегоев В.В. Александр I и проблемы войны и мира в Европе. 2002. С. 126.

aralashish imkoniyatini anglatardi. Shunday qilib, Fransiyada 1818 yilgacha ittifoqchilar qo'shinlari joylashgan edi.

Biroq, "Vena tizimi" zaif ekanligini isbotladi. Umumiy dushman yo'qoldi va turli mamlakatlar o'rtasidagi eng keskin kelishmovchiliklar davom etdi. Vakolatlarning hech biri Vena Kongressi natijalaridan to'liq qoniqmadi: eski qarama-qarshiliklar yangilari bilan almashtirildi.

Angliya fransuz mustamlakalarining salmoqli qismini qabul qilib, butun dunyo bo'ylab o'zining ekspansiyasini kuchaytirdi, bu esa uni muqarrar ravishda boshqa kuchlar bilan ziddiyatga olib keldi.¹²

Germaniyada hukmronlikka erishgan Avstriya manfaatlari Prussiya manfaatlariga zid edi. Va barcha davlatlar Rossiya imperatorining Yevropaning yagona hukmdoriga aylanishidan qo'rqishdi. Mumkin bo'lган to'qnashuvning oldini olish uchun buyuk davlatlarga ularni birlashtiradigan umumiy maqsad kerak edi. Va bunday maqsad Yevropadagi inqiloblarga qarshi kurash va ozodlik harakati edi.¹³

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Акт Венского конгресса. М.: 1997.
2. Акт о Священном союзе подписанный Францем I, Фридрихом-Вильгельмом III, Александром I // Внешняя политика России XIX – начала XX вв. Т. 8. М., 1972,
3. Алексеев И.Н. Венский конгресс в судьбе народов Европы. М.: 1998.
4. Альперович М. С., Слезкин Л. Ю., Образование независимых государств в Латинской Америке (1804-1903), М., 1966;
5. Альперович М. С., Освободительное движение конца XVIII — начала XIX вв. в Латинской Америке, М., 1966;

¹² Дебидур А. Дипломатическая история Европы от Венского до Берлинского конгресса (1814 – 1878). М.: 1947. С. 115.

¹³ Дегоев В.В. Александр I и проблемы войны и мира в Европе. 2002. С. 128.